



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ISLOMDA BAG‘RIKENGLIK VA KECHIRIMLIK

Muhibullayev Saidmuhammadxon Dovudxon o‘g‘li

Xoja Buxoriy o‘rta maxsus

islom ta‘lim muassasasi o‘qituvchisi

Tel: +99890 886-07-73

Muhibullayevs@gmail.com

Islom dinida ibodat va Allohga yaqinlashish faqatgina namoz, ro‘za, zakot, haj, zikr yoki Qur‘on tilovati bilan cheklanmaydi. Balki, kechirimlilik va bag‘rikenglik ham Alloh taoloning roziligiga eltuvchi eng go‘zal ibodatlardandir. Zero, inson o‘zini kechirish va boshqalarni afv etish orqali Parvardigoriga yaqinlashadi.

Buni qisqacha qilib “samohat” deyiladi. Bu so‘z arab tilida “muloyim”, “haliym”, “afv” va “yumshoq tabiatlik” degan ma‘nolarini bildiradi, ya‘ni yumshoqlik, kechirimlilik, sahovat va yaxshilik demakdir. Islomda bag‘rikenglik — bu ulug‘ nabaviy xulqlardan biridir. Rasululloh ﷺ ning bu fazilatlarini ko‘p bora aziyat berishni istagan insonlarning qalbini o‘zgartirishda kotta ta‘siri bo‘lgan. U zotga dushmanlik nazari bilan qaragan va yer yuzida eng yomon deb biladigan insonlar, bag‘rikengliklari va afvlari tufayli u zotni eng sevimli insoni bo‘lib qaytgan. Bularning barchasi Qur‘oni ko‘rsatmaga to‘liq qilganlari va xulqlari Qur‘on bo‘lgani tufayli edi.

Alloh taolo O‘z Payg‘ambariga ﷺ bag‘rikenglik va kechirimlilikni buyurib, shunday deydi:

“Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo‘lmas. (Yomonlikni) eng chiroyli yo‘l bilan daf et. Ko‘ribsanki, sen bilan (uning) orasida adovati bor kimsa huddi sodiq do‘stdek bo‘lur. Unga faqat sabr qilganlarga erishur. Unga faqat ulug‘ nasiba egasi bo‘lganlarga erishur”³³. (Fussilat surasi, 34–35-oyatlar).

Ibn Kasir “Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo‘lmas”. oyatini sharhlab shunday deganlar:

“Yaxshilik va yomonlik orasida katta farq bor.” (Yomonlikni) eng chiroyli yo‘l bilan daf et”. Kim senga yomonlik qilsa, sen unga yaxshilik bilan javob ber. “Ko‘ribsanki, sen bilan (uning) orasida adovati bor kimsa huddi sodiq do‘stdek bo‘lur”. Senga yomonlik qilganga yaxshilik qilsang, unga qilgan yaxshiliging uni samimiylik va muhabbatga boshlaydi. Shunda u kishining qalbi yumshaydi va dushmanlik o‘rniga do‘stlik paydo bo‘ladi. Bunday yuksak xulq faqat sabrli va buyuk saodat e‘galariga nasib etadi.³⁴”

Tafsiri hilolda ushbu oyatning tafsiri borasida quyidagicha keladi:

Allohning yo‘liga chaqiruvchi so‘zining qadrini yaxshi bilishi, so‘zni his etishi kerak. Chunki, “Yaxshilik bilan yomonlik barobar bo‘lmas”.

³³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Jild. 6. 5-j. Toshkent: 2019. Hilol Nashr.

³⁴ Ibn Kasir. Tafsirul-Qur‘an al-Aziym. Bayrut: “Dorul-ma‘rifa” nashriyoti. 1989. J. 4. 4-jild. —B. 109.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Alloh taoloning yo‘liga chaqiruvchining ishi yaxshi ish, so‘zi yaxshi so‘z, uning ishi boshqalarning ishidan ustun, uning so‘zi boshqalarning so‘zidan ustun. Shuning uchun ham: (Yomonlikni) eng chiroyli yo‘l bilan daf et”.

Har qancha yomon gap eshitib, har qancha yomon muomala ko‘rsang ham, faqat yaxshi narsa ila qaytar, ey Allohning yo‘liga chaqiruvchi! Hech qachon yomonlik qilma! Ana o‘shanda: “Ko‘ribsanki, sen bilan (uning) orasida adovati bor kimsa huddi sodiq do‘stdek bo‘lur”.

Bu Islomda yaxshilikka chaqiruvchilar uchun juda zarur bir sifatdir. Har bir narsani yomonlik bilan emas, faqat yaxshilik bilan qarshi olish darajasiga yetgan chorlovchigina katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Ammo bu sifatga erishish oson emas.

“Unga faqat sabr qilganlarga erishur. Unga faqat ulug‘ nasiba egasi bo‘lganlarga erishur”.

Har qanday yomon so‘zni yaxshi so‘z bilan qaytarish, har qanday yomon ishni yaxshi ish bilan qaytarish sifatiga: “...Faqat sabr qilganlarga erishur”.

Sabr qilmasa, yomon so‘zga darhol yomon so‘z qaytaradi. Yomon ishga yomon ish qaytaradi. Bu esa Allohning yo‘liga chorlovchiga hech foyda bermaydi. Allohning yo‘liga, Allohning diniga kishilarni chaqirish oson ish emas. Chunki u bu yo‘lda turli-tuman malomat, ig‘vo, bo‘hton, yolg‘on gaplar, so‘kishlar, ozorlar eshitadi. Turli nohaq tasarruflar va zulmlar ko‘radi. U shularning hammasiga sabr qilishi kerak. Ana shundagina yuqorida aytilgan darajaga erishadi. Bunga “...faqat ulug‘ nasiba egasi bo‘lganlarga erishur”.³⁵

Jobir ibn Abdulloh (roziyallohu anhumadan) rivoyat qilindi: «Ey Rasululloh, qaysi amal eng afzaldir?» – deb so‘ralganida, Payg‘ambar (sollallohu alayhi vasallam) dedilar:

«Sabr va bag‘rikenglik». (Imom Bayhaqiy “Shu‘abul iymon”da rivoyat qilgan).

Shuningdek, Amr ibn Abasadan (roziyallohu anhu) rivoyat qilindi: «Ey Rasululloh, iymon nima?» – deb so‘radim. U zot dedilar:

«Sabr va bag‘rikenglik». (Bayhaqiy rivoyati).

Payg‘ambar ﷺ ning hayotlarida bag‘rikenglik misollari

1. Johil va qo‘pol kishilarga nisbatan bag‘rikenglik

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) rivoyat qiladi:

“Men Rasululloh ﷺ bilan birga ketayotgan edim. U zotning ustlarida Najronliklar to‘qigan qalin chekkali libos bor edi. Bir badaviy (cho‘llik arab) keldi-da, u zotning libosini qattiq tortib yubordi. Shunda libosning cheti Rasululloh ﷺ (muborak) bo‘yinlarida iz qoldirdi. So‘ng u kishi: “Ey Muhammad, Alloh bergan molingdan (o‘ljadan) menga ham ber!” — dedi. Rasululloh ﷺ unga kulib boqib, unga ehson berdilar”. (Muslim rivoyati 1057-hadis, Imom Buxoriy 3149-hadis)

Imom Navaviy bu hadisni sharhlab shunday deydi:

³⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Jild. 6. 5-juz. Toshkent: “Hilol Nashr”, 2019. –B. 308-309.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



“Bu hadis johillarning qo‘polligiga sabr qilish, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish va ularning qalbini yumshatish lozimligini bildiradi. Ushbu hadisda Payg‘amabarimizning go‘zal xulqlari, halimliklari va kechirimli zot ekanlari ham namoyondir³⁶”.

Donishmandlardan biri aytadi: “Yaxshilik mol va farzandlarning ko‘pligida emas, yaxshilik keng felli, axloqli bo‘lish, ilm olish va Allohga ibodatda boshqalarga o‘rnak bo‘lishdir”. Muhammad Zehniy aytadi: “Odamlarning yaxshirog‘i o‘z qalbida yaxshilikka yo‘l ochgani va yomonlikni, ochko‘zlikni haydab chiqarganidir”³⁷. Ushbularning barchasi Islomda bag‘rikenglik va kechirimlikning ko‘rsatmasi ekaniga yaqqol dalildir.

2. Kofirlarga nisbatan bag‘rikenglik

Rasululloh ﷺ musulmonlar bilan tinch yashayotgan, ularni urush bilan tahdid qilmagan kofirlarga ham adolatli va bag‘rikeng munosabatda bo‘lganlar. Ularga ham adolatli bo‘lib, kasal bo‘lsalar ziyortaga borar va g‘ayri din qo‘shnilariga go‘zal munosabatda bo‘lar edilar.

Anas (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar:

“Bir yahudiy bola Rasululloh ﷺ ga xizmat qilar edi. U kasal bo‘lib qoldi. Rasululloh ﷺ uning holidan xabar olish uchun bordilar va boshida o‘tirdilar. So‘ng unga: “Islomni qabul qil”, dedilar. Bola otasiga qaradi, otasi: “Abul-Qosimning so‘ziga quloq sol”, dedi. Bola Islomni qabul qildi. Rasululloh ﷺ chiqib ketar ekanlar: “Allohga hamd bo‘lsinki, uni do‘zaxdan qutqardi”, dedilar.³⁸” (Buxoriy rivoyati)

Bu hadisda Islomning adolat va bag‘rikenglik tamoyillari yaqqol ko‘rinadi — Payg‘ambar ﷺ hatto boshqa din vakillariga ham mehr-shafqat bilan munosabatda bo‘lganlar.

3. Xizmatkor va ishchilarga nisbatan bag‘rikenglik

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) deydi:

“Men Rasululloh ﷺ ga o‘n yil xizmat qildim. U zot hech qachon menga “uf” demaganlar, qilgan ishim uchun “nega bunday qilding?” yoki qilmagan ishim uchun “nega bunday qilmading?” demaganlar³⁹.” (Imom Buxoriy rivoyati 6038-hadis, Imom Muslim rivoyati 2309-hadis)

Oisha (roziyallohu anho) shunday deganlar:

“Rasululloh ﷺ hech narsani o‘z qo‘llari bilan urmaganlar — na ayol, na xizmatkorni. Faqatgina Alloh yo‘lida jihodda bo‘lganlarida qo‘llarini ko‘targanlar.⁴⁰” (Muslim rivoyati 2328-hadis)

Odatda biror xodim xato va kamchilklardan xoli bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsada U zot o‘z sahobalariga bag‘rikenglik va kechirimlikni tavsiya qilmoqdalar. Yana bu hadislar Rasululloh ﷺ ning beqiyos sabr va yuksak axloq egasi bo‘lganliklarini ham ko‘rsatadi.

³⁶ Imom Navaviy. Sharhi ala shahihi Muslim. Jild. 18. 7-jld. Bayrut: “Dor ihyo at-turosul-arabiy”. 1929. —B. 147.

³⁷ Usmonxon Alimov. Tafsihi Irfon. Jild. 6. 5-juz. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019. — 752 b. —B. 212.

³⁸ Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Bayrut: “Mu‘assash ar-risalatunashirun”. 3-nashr. 2021. —B. 454.

³⁹ Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Bayrut: “Mu‘assash ar-risalatunashirun”. 3-nashr. 2021. Odob kitobi.—B. 1448.

⁴⁰ Imom Muslim. Sahihi Muslim. Fazilatlar kitobi. 2, Mulla Ali Qori. Mushkotul-masobih. Fazilatlar va shamoillar kitobi, 5818-hadis. 3. Imom Navaviy. Riyozus-solihiyin. Muqaddima qismi. 643-hadis.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Bunga Abdulloh ibn Umar (roziyallohu anhunmo)dan qilingan rivoyat dalil bo‘ladi:

Bir kishi Payg‘ambar ﷺ ga kelib: “Ey Rasululloh, xodimdan qanchagacha afv qilamiz?”, deb so‘radi. U zot sukut qildilar. U kishi qayta so‘radi, yana indamadilar. Uchinchi bor so‘raganida esa, shunday javob berdilar: “Undan har kuni yetmish marta bo‘lsa (ham) kechringlar”. (Imom Abu Dovud rivoyati 5163-hadis).

4. Savdo-sotiqda bag‘rikenglik

Oldi-sotdi ishlari bag‘rikenglik namunasini namoyan qiladigan muhim kunlik muomalardan hisoblanadi. Shuning uchun Payg‘ambar alayhissalom oldi-sotdi masalasida samohat va kechirimlikga chaqirib shunday deganlar:

“Alloh rahm qilsin — kim savdo-sotiqda, xaridda va qarz undirishda bag‘rikeng bo‘lsa.⁴¹” (Imom Buxoriy rivoyati)

Ibn Hajar bu hadisni sharhlab:

“Bag‘rikenglik — muomalada qiyinchilik keltirmaslik, yumshoqlik bilan ish yuritishdir. Savdo va muomalada muloyimlik insonni Alloh rahmatiga loyiq qiladi. Bu hadisda muomalda bag‘rikeng bo‘lish, oliy xulqqa loyiq so‘zlarni ishlatish va janjalni tark qilishga targ‘ib bor. Shu bilan birga odamlardan qarzni talab qilishda tajanglik qilmaslik va kechirimlik yo‘lini tutishga undosh mavjuddir⁴², — degan.

Bag‘rikenglikning chegarasi

Bag‘rikenglik va kechirimlilik yuksak fazilatdir, lekin u har doim ham maqbul bo‘lavermaydi. Alloh taolo deydi:

“Yomonlikning jazosiga o‘xshash yomonlik bor. Kim kechirsa va isloh qilsa, uning mukofoti Alloh huzuridadir. Albatta, Alloh zolimlarni suymas” (Shuro surasi 40-oyat).

Ibn Kasir bu oyatni sharhlab shunday deyilar:

“Alloh adolatni farz qildi, u qasosdir. Ammo fazilatli ish sifatida kechirimni tavsiya etdi. Shuning uchun, Kim kechirsa va isloh qilsa, uning mukofoti Alloh huzuridadir, dedi⁴³”.

Kechirimlilik va bag‘rikenglik fazilat va yuksak ishdir. Shu bilan birga, agar kechirish natijasida yomonlik yanada kuchaysa yoki zulm davom etsa, bunday holatda qat‘iylik zarur bo‘ladi. Shonqitay rahimahulloh shunday deganlar:

“Ba‘zan g‘azablanish o‘rinli, ba‘zan esa sabr va kechirish go‘zal bo‘ladi. Har birining o‘rni bor. Agar halm bo‘l deyilsa, sen aytginki, halmlikning o‘rni bor, yegit kishining noo‘rin joyda halmligi uning johilligidir”.

Rasululloh ﷺ buyuk kechirimliklari go‘zal bag‘rikengliklari bilan bir qatorda, Allohning hurmatlari poymol qilinganda, g‘azablanib, haqqni tiklardilar. Oisha (roziyallohu anho)dan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh ﷺ hech narsani o‘z qo‘llari bilan urmaganlar — na ayol, na xizmatkorni. Faqatgina Alloh yo‘lida jihodda bo‘lganlarida qo‘llarini ko‘targanlar. U zot hech qachon o‘z

⁴¹ Imom Buxoriy. Jami‘us-sahih. Savdo-sotiqda yengillik va bag‘rikenglik bob, 2076-hadis.

⁴² Ibn Hajar Asqaloni. Fathul-Boriy li-sahihul-Buxoriy. “Dor Toyyiba lin-nashr vat-tavzi” nashriyoti. 2005. J. 17. 5-juz. — B. 530.

⁴³ Ibn Kasir. Tafsirul-Qur‘an al-Aziym. Bayrut: “Dorul-ma‘rifa” nashriyoti. 1989. J. 4. 4-jild. —B. 128.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



haqlarini buzgan kimsadan o‘ch olmaganlar, lekin Allohning chegaralari buzilgan da, Alloh uchun o‘ch olganlar.”⁴⁴” (Muslim rivoyati 2328-hadis).

Imom Navaviy shunday deydilar:

“Bu hadisdan sabr, hilm va bag‘rikenglikning afzalligi, shuningdek, din uchun g‘azablanishning lozimligi ma‘lum bo‘ladi. Bundan tashqari ummat, hokimlar va ish-boshilar uchun yuksak xulq bilan xulqlanib, o‘zlari uchun o‘ch olmasliklari va Allohning haqqini poymol qilmasliklari zarur ekani kelib chiqadi⁴⁵”

Islom bag‘rikenglikni qonun va adolat bilan uyg‘unlashtiradi. U nafaqat oilada, qarindoshlarda, musulmon jamiyatda, balki g‘ayrimuslimlar bilan ham munosabatda qo‘llanilishi kerak.

Rasululloh ﷺ ning Abu Hurayra (r.a.) orqali rivoyati:

“Bir kishining g‘ayrimuslim dushmani bo‘lsa ham, agar u taslim bo‘lib, jang qilmasa, unga zarar yetkazmang.” (Muttafaqun alayh)

Rivoyat qilinishicha, Najran shahridan bir safar Rasululloh ﷺ huzuriga kelgan yahudiy va nasroniylar asrdan keyin masjidga kirib, namoz o‘qimoqchi bo‘lishdi. Buni ba‘zi musulmonlar to‘xtatmoqchi bo‘ldilar, lekin Rasululloh ﷺ shunday dedilar:

“Ularni tek qo‘ying, dedilar, bas ular (o‘z qiblalari) mashriqqa qarab namoz o‘qidilar.” (Ibn Is‘haq va Bayhaqiy “Dalail an-Nubuvvah”da rivoyat qilishgan)

Bu hadis Islomda g‘ayrimuslimlar bilan bag‘rikeng munosabatning yuksak darajada ekanini ko‘rsatadi. Tarixda musulmonlarning o‘zga din vakillari bilan munosabatlari shunday bo‘lgan.

Boshqa hadisda Rasululloh ﷺ shunday deganlar:

“Ogoh bo‘ling kim ahd ostidagi kishiga zulm qilsa yoki uni kamsitsa yoki unga toqatidan ortiq narsani yuklasa hamda undan biror narsani majburlab olsa, men unga (foydasiga) Qiyomat kuni dalil bo‘laman.” (Imom Abu Dawud 3059-hadis).

Shuningdek, Hazrat Umar ibn Xattob (roziyallohu anhu) o‘zini no-musulmonlarning huquqlarini himoya qilishga mas‘ul bilib, o‘lim chog‘ida o‘zidan keying xalifaga shunday vasiyat qilganlar:

“Unga (xalifaga) Alloh va Uning Rasulining zimmasi ila vasiyat qilamanki, ularning ahdini to‘liq bajarishi va ahdni buzib jang qilmasligi hamda ularga toqatidan ortiq ishni yuklamasligini vasiyat qilaman”.

Bu ishlar musulmon hukmdorlarning g‘ayrimuslimlar bilan adolat va bag‘rikenglik siyosatini amalda ko‘rsatadi.

Xulosa

Bag‘rikenglik — Islomning go‘zal axloqlaridan biri, u insonning izzatini oshiradi. Rasululloh ﷺ dedilar:

⁴⁴ Imom Muslim. Sahihi Muslim. Fazilatlar kitobi. 2, Mulla Ali Qori. Mushkotul-masobih. Fazilatlar va shamoillar kitobi, 5818-hadis. 3. Imom Navaviy. Riyozus-solihiyin. Muqaddima qismi. 643-hadis.

⁴⁵ Imom Navaviy. Sharhi ala shahihi Muslim. Jild. 18. 7-jld. Bayrut: “Dor ihyo at-turosul-arabiy”. 1929.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Kim kechirsa, Alloh uni faqat izzatli qiladi”. (Muslim rivoyati)

Rasululloh ﷺ musulmon jamiyatini hilm, sabr, kechirimlilik va bag‘rikenglik ustiga barpo etganlar. U zot shunday dedilar:

“Ey Uqba! Seni uzgan bilan aloqani uzma, seni mahrum qilgan kishiga hadya ber, senga zulm qilganni kechir”. (Ahmad rivoyati)

Ibn Taymiyya rahimahulloh aytganlar:

“Rasululloh ﷺ butun insoniyat uchun rahmat va hidoyat sifatida yuborilgan. U zot ilm bilan ham, rahm-shafqat va sabr bilan ham odamlarni yaxshilikka yetaklaganlar”.

Shunday qilib, Islomda bag‘rikenglik — faqat insonlar orasidagi muomala emas, balki jamiyatni tinchlik, rahm-shafqat va adolat asosida qurishga da’vatdir. Alloh taolo Payg‘ambariga shunday degan:

“Ularni kechir va ularni kechirim bilan o‘tkaz, albatta Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadi”. (Moida surasi 13-oyat).

FOIDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Jild. 6. 5-j. Toshkent: 2019. Hilol Nashr.
2. Ibn Kasir. Tafsirul-Qur’an al-Aziym. Bayrut: “Dorul-ma’rifa” nashriyoti. 1989. J. 4. 4-jild. –B. 128.
3. Imom Navaviy. Sharhi ala shahihi Muslim. Jild. 18. 7-jld. Bayrut: “Dor ihyo at-turosul-arabiy”. 1929.
4. Ibn Hajar Asqaloniy. Fathul-Boriy li-sahihul-Buxoriy. “Dor Toyyiba lin-nashr vat-tavzi” nashriyoti. 2005. J. 17. 5-juz. –B. 530.
5. Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. Bayrut: “Mu’assash ar-risalat u nashirun”. 3-nashr. 2021.
6. Usmonxon Alimov. Tafsiri Irfon. Jild. 6. 5-juz. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019. – 752 b. –B. 212.

